

INSON va qonun

2025-YIL
8-APREL
SESHANBA
№ 14
(1478)

www.hudud24.uz

www.adolatmarkazi.uz

telegram.me/hudud24official/

facebook.com/hudud24official/

@huquqiyaxborot



Huquqiy axborot
telegram kanaliga
obuna bo'ling!

QR code
Huquqiy
axborot
telegram
kanalida
kuzating!



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING SAMARQAND XALQARO IQLIM FORUMIDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Hurmatli forum ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Barchangizni bugungi davrdagi asosiy tahdid – global iqlim o'zgarishlariga bag'ishlangan konfrensiyamizda chin yurakdan qutlayman.

Hurmatli hamkasblarim – Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo davlatlari yetakchilari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti nomidan qatnashayotgan bizning ishonchli hamkorlarimiz, xalqaro moliya institutlari, global va milliy ekologik tashkilotlar vakillariga ushbu tadbirda ishtirok etayotgani uchun samimiy minnatdorlik izhor etaman.

Sizlarning forumdagi ishtirokingiz barqaror rivojlanishning eng dolzarb masalalari bo'yicha samarali yechimlar izlashda birgalikda sa'y-harakatlar olib borishga sodiqlik namunasidir.

Ishonchim komil, bu zaminda, asrlar davomida yangi g'oya va bilimlar yaratilgan, ishonch va buniyodkor sheriklik markazlaridan biri bo'lgan qadimi Samarqandda biz iqlim sohasidagi zamonaviy tahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha birgalikda ta'sirchan chora-tadbirlar ishlab chiqola.

O'zbekistonga xush kelibsiz!

Samarqandga xush kelibsiz!

Hurmatli forum ishtirokchilari!

O'tgan yili sayyoramizda o'rtacha havo harorati birinchi marta Selsiy shkalasi bo'yicha bir yarim darajadan yugoriroq ko'tarildi. So'nggi o'n yillik butun meteokuzatuvarlar tarixidagi eng issiq davr bo'ldi. Buning oqibatida bugun biz barchamiz iqlim inqirozlarining salbiy ta'sirlari – o'rmon yong'inlari va cho'llanish miqyosi ortib borayotgani, muzliklar qisqarayotgani, suv resurslari taqchilligi kuchayayotgani, havo sifati yomonlashayotganini his qilib turibmiz.

Ta'kidlab aytaman, atrof-muhitni asrab-avaylashda mas'uliyat barchamizning zimmamizda. Bu kun tartibimizdag eng muhim masaladir.

Markaziy Osiyo mamlakatlari tomonidan iqlim o'zgarishlariga moslashish bo'yicha strategiya ishlab chiqilgani va bir ovozdan ma'qullanganini ta'kidlash joiz. O'zbekiston mintaqadagi barcha sheriklar bilan umumi maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo'yicha yaqindan ishslash niyatidadir.

Biz, shuningdek, Yevropa tomoni bilan Orol dengizi qurishi oqibatlarini yumshatish, suvdan oqilona foydalanish, "toza" energiya manbalarini kengaytirish dasturlari doirasida muvaffaqiyatli hamkorlik qilyapmiz. Bunday sheriklik Markaziy Osiyoda barqaror "yashil" rivojlanishga muhim hissa qo'shamiz.

Hech shubhasiz, bugungi kunda Yevropa Ittifoqi iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish masalalarini ilgari surish va himoya qilishda global yetakchidir.

Biz kelgusida ham bu sohadagi amaliy hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga tayyormiz.

Hurmatli xonimlar va janoblar!

Iqlim o'zgarishi muammolari oziq-ovqat va energiya xavfsizligi bilan chambarchas bog'liqidir. Mintaqa aholisi 25 yildan so'ng 100 million kishidan ortishi kutilayotgan bir vaqtida unumli yerlar tez sur'atlar bilan qisqarib bormoqda.

Bugungi kunda mintaqadagi umumiy yer maydonining 20 foizdan ortig'i degradatsiyaga uchragan. Chorak asrdan keyin hosildorlik uchdan bir qismga kamayib ketishi mumkin.

Shu munosabat bilan, o'rmon xo'jaligi va agrar sohaning moslashuvchanligini oshirish, shuningdek, "Ufq – Yevropa" dasturi doirasida oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash uchun ilmiy salohiyatimizni birlashtirish hayotiy muhim masala, deb hisoblayman.

O'zbekiston degradatsiyaga uchragan yer maydonlarini qisqartirish va iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish maqsadida "Yashil makon" loyihasi doirasida keng ko'lamli ko'kalamzorlashtirish ishlari olib bormoqda. Bundan tashqari, Orolbo'yining 2 million gektardan ortiq cho'l hududlarida qurg'oqchilikka chidamli o'simliklar ekildi.

Har yili Navro'z bayrami arafasida daraxt ekish bo'yicha "Markaziy Osiyoning yashil belbog'i" mintaqaviy aksiyasini o'tkazishni taklif etaman.

Aminmanki, uning tashkil etilishi bizning ezgu an'anamizga va tabiiy ofatlarga qarshi kurashdagi birligimiz timsoliga aylanadi.

Hurmatli forum ishtirokchilari!

O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotning resurslari tejaydigani va ekologik toza modeliga o'tishni boshladidi.

Bu boradagi eng muhim yo'nalishlardan biri – "yashil" energetikadir. Yaqin besh yilda qayta tiklanadigan manbalaridan olinadigan energiya ulushini 54 foizga yetkazishni mo'ljallayapmiz. Bu atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar miqdorini 16 million tonnaga qisqartirish imkonini beradi.

Biz O'zbekistonning Parij bitimi doirasida bug' gazlari chiqarishni 35 foizga kamaytirish bo'yicha olgan majburiyatini muddatidan oldin bajarish uchun barcha sa'y-harakatlarimizni ishga solishimizni ta'kidlab o'tmoqchiman.

Shu bilan birga, biz bu marrada to'xtab qolmoqchi emasiz.

Moliyalashtirish, texnologiyalar va kompetensiyalarni safarbar qilish maqsadida Toshkent shahrida Yevropa Ittifoqining "Suv – Energiya – Iqlim o'zgarishi" deb nomlangan tashabbusining kotibiyatini tashkil qilishni taklif etamiz.

Bundan tashqari, umumi strategik vazifalarni amalga oshirish doirasida mazkur forumda mintaqaning "yashil" taraqqiyot konsepsiysi taqdim

etiladi. Ishonamanki, mazkur hujjatning qabul qilinishi va amalga oshirilishi Markaziy Osiyoning ekologik yo'naltirilgan taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Hurmatli delegatsiyalar a'zolari!

Tahllillarga ko'ra, Amudaryo va Sirdaryoda suv oqimi kamayishi natijasida 2040-yilga borib Markaziy Osiyo mamlakatlari yuqori darajadagi suv taqchilligiga duch keladi.

Biz allaqachon insoniyatning eng yirik fozialridan biri – Orol dengizi qurishi oqibatlarini boshdan kechirmoqdamiz.

Biz suv resurslarini tejasj maqsadida irrigatsiya tizimlarini betonlashtiryapmiz. Suvni tejaydigani texnologiyalarni ishlab chiqarish bo'yicha sanoat bazasini yaratdik, sug'oriladigan yerlarning deyarli yarmida ana shunday texnologiyalarni joriy etdik. (Bu salkam ikki million hektar yer maydoni demakdir). Bunday chora-tadbirlar natijasida o'tgan yili 8 milliard metr kub suvni tejasjha muvaffaq bo'ldik.

Markaziy Osiyoda suvni tejaydigani texnologiyalarni joriy etish borasidagi sa'y-harakatlarni birlashtirish va bu sohada mintaqaviy dasturni ishga tushirishga chaqiramiz.

Bu rejalarning barchasini ekspertlar muhokamidan o'tkazish uchun Orolbo'yini mintaqasida xalqaro forum o'tkazishni maqsad qilganmiz.

Shuningdek, muzliklarning holati va mintaqadagi tog' ekotizimlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni oldindan baholash uchun sun'iy yo'ldosh orqali uzluksiz kuzatuvlarni yo'lga qo'yish bo'yicha "Copernik" dasturi doirasida Yevropa Ittifoqi bilan yaqin hamkorlikka umid qilamiz.

Toshkentdag "Yashil universitet" bazasida yaratilgan Iqlim rezidensiysi Markaziy Osiyoda kechayotgan iqlim jarayonlarini o'rganish va monitoring qilish bo'yicha umumi ilmiy-ekspertlik platformasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bundan tashqari, ertaga Nukus shahrida mintaqamizning ekologik muammolariga san'at sohasidagi loyihalari orgali e'tiborni jaib etishga qaratilgan Orol madaniyat sammiti o'z ishini boshlaydi.

Qadrli do'stlar!

So'zimning nihoyasida "Biz Yerni ajdodlarimizdan meros sifatida emas, balki farzandlarimizdan qarzga olganmiz", degan mashhur hikmatli iborani eslatib o'tishni istar edim. Bugungi kunda bizning vazifamiz – kelajak avlodlar barqaror, xavfsiz va farovon dunyoda yashashi uchun barcha chora-tadbirlarni ko'rishdan iborat.

Buning uchun muloqotlarni mustahkamlash, umumi ezgu maqsadlar yo'lida birlashgan barcha davlatlarning sa'y-harakatlarini uyg'unlashtirish zarur.

E'tiboringiz uchun rahmat.

2 9-APREL – SOHIBQIRON AMIR TEMUR TAVALLUD TOPGAN KUN

“YAXSHILARGA YAXSHILIK QILDIM, YOMONLARNI ESA O‘Z YOMONLIKLARIIGA TOPSHURDIM...”

BUYUK davlat arbobi Sohibqiron Amir Temur Mavarounnahrda markazlashgan qudratli davlat barpo etdi. Davlatning asosini adolat mezonlari bilan boyitdi va yuksaltirdi. Undagi yuksak insoniy fazilatlar, jasurlik, mardlik, fidoyilik, vatanparvarlik, ziyraklik, hushyorlik, uzoqni ko‘ra olish, ayniqsa, yuqori darajadagi samimiylik uni yengilmas sarkarda darajasiga ko‘tardi. Dunyo mamlakatlarining hukmdorlari Amir Temur tomonidan barpo etilgan qudratli davlatga, uning davlat boshqaruvi san‘atiga, shunday buyuk sarkarda va davlat arbobi yetishib chiqqan yurtga yuksak hurmat va e‘tibor ko‘rsatdilar.



Davlat boshqaruvi adolat mezonlari asosida kuchli qonunlar doirasida amalga oshirildi. Qonunga asoslangan tizimning ahamiyatini chuqur anglab yetgan Sohibqiron haqli ravishda, “Kuch – adolatdadir” degan oliv me’yorni shior qilib oldi. Bu shior bugungi kunda ham qudratli, huquqiy demokratik davlat barpo etishimiz uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Davlat va jamiyat hayotining barqaror rivojlanishida “Temur tuzuklari”ning o‘rnini va ahamiyati beqiyos ekanini ta‘kidlab o‘tish joiz. Unda Amir Temur davlatining qo‘shni mamlakatlar bilan olib borgan iqtisodiy, madaniy, siyosiy munosabatlari tarixi o‘z ifodasini topgan.

Sobiq mustabid tuzum davrida “Tuzuklar”ni keng jamoatchilikka yetkazish va ilmiy muomalaga olib kirishda akademik I. Mo‘minovning xizmatlari beqiyos. Olimning tashabbusi bilan 1968-yilda “Temur tuzuklari”ning N. Ostroumov nashri (1894) faksimilesining nashrdan chiqarilishi, shuningdek, uning “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rnini va roli” asari (1968) hamda Amir Temur shaxsini ilmiy o‘rganish tashabbusi bilan chiqishi olimning ilmiy jasorati va yuksak vatanparvarligining yorqin ifodasi bo‘ldi. Amir Temurning qudratli davlat barpo etish va mustahkamlash borasida olib borgan mohirona siyosati ulkan mintaqada tinchlik va adolatni ta’minalash, ayni vaqtida

xalqaro munosabatlarni yuksaltirishda muhim tarixiy hissa bo‘lib qo‘shildi.

“Temur tuzuklari”da muallif zukko siyosatchi va yirik davlat arbobi, mohir diplomat sifatida o‘z davlatining tuzilishini, uning qay tarzda boshqarilishi kerakligini bayon etadi, mansabdorlarning huquq va burchalarini belgilab beradi. Jumladan, unda shunday deyiladi: “Sultanatim ishlarini tartib-intizomga solib, sultanatim martabasiga to‘ra va tuzuk bilan zebu ziynat berdim. Sultanatimi o‘n ikki toifadagi kishilar bilan mustahkamladim. Sultanatim martabasi bo‘lmish to‘ra-tuzuklar va qonungoidalarni ham shu o‘n ikki toifaga bog‘lab tuzdim. Bu o‘n ikki toifani sultanatim falakining o‘n ikki burji va davlatim korxonasining o‘n ikki oyi deb hisobladim”.

Shuningdek, “Temur tuzuklari”dagi quyidagi fikrlar ham buyuk Sohibqiron saltanatining mustahkam bo‘lishiga xizmat qilgan mezonlardir. “Adolat va insof bilan Tangrimning yaratgan bandalarini o‘zimdan rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shafqat bilan, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayrehson ishlarim bilan odamlarning ko‘nglidan joy oldim. Siyosat va insof bilan sipohlarimni, raiyatni umid va qo‘rqinch orasida tutib turdim. Fuqaro va qo‘l ostimdagilarga rahmidlik qildim, askarlarimga in‘omlar ularshdim.

Zolimdan mazlumning haqqini oldim. Zolim yetkazgan moddiy va

jismiy zararlarni isbotlaganimdan keyin, uni shariatga muvofiq ikkisi o‘rtasida muhokama qildim va bir gunohkorning o‘rniga boshqasiga jabr-zulm yetkazmadim.”

Amir Temur hayotida bunday hikmatlar ko‘p. Ul zot “Yaxshilarga yaxshilik qildim, yomonlarni esa o‘z yomonliklariga topshurdim... Men ga yomonliklar qilib, boshim uzra shamshir ko‘tarib, ishimga ko‘p ziyon yetkazganlarga ham, iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, hurmatlab, yomon qilmishlarini xotiramdan o‘chirdim”, deb yozadi.

Shuni aytish kerakki, Amir Temur davlatida oliq-soliqlarning muayyan aniq tartibi belgilangan bo‘lib, muhosillar (soliq yig‘uvchilar)ning faoliyati ustidan qat’iy nazorat o‘rnataligan. “Amr etdimki, – deyiladi tuzuklarda, – raiyatdan mol-xiroj yig‘ishda ularni og‘ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo‘yishdan saqlanish kerak. Negaki, raiyatni xonavayron qilish davlat xazinasining kambag‘allahuviga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa, sipohning tarqalib ketishiga sabab bo‘ladi. Sipohning tarqoqligi, o‘z navbatida sultanatning kuchsizlanishiga olib boradi”. Sohibqiron tomonidan tuzilgan eng qudratli va intizomli armiya Vatanga, qolaversa, xalqqa sadoqat bilan xizmat qilishda, shuningdek, har qanday to‘silqlarni mardonavor yengib o‘tishda muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

Amir Temurning yirik markazlashgan davlat tuzishi jarayonida dunyo ilm-fani, adabiyot va san‘ati, hunarmandchilik va me‘morchiligi ravnak topdi. Ilm-fan, ma‘naviyat ahliga alohida e‘tibor ko‘rsatdi. Har vaqt ularga mehrbonlik ko‘rsatib doimo qo‘llab-quvvatlab turdi. Fransuz olimi Lyangle shunday yozadi: “Temur olimlarga seriftifot edi. Bilimdonligi bilan bir qatorda sof-dilligini ko‘rgan kishilarga ishonch bildirardi. U tarixchilar, faylasuflar, shuningdek, ilm-fan, idora va boshqa ishlarda iste’dodli bo‘lgan barcha kishilar bilan suhbatlashish uchun ko‘pincha taxtdan tushib, ularning yoniga kelardi. Chunki Temur bu sohalarga g‘amxo‘rlik qilishga asosiy e‘tiborini berardi”. Sohibqiron hukmdorlik qilgan davrdagi madaniy va ma‘naviy hayat tahlili shundan dalolat beradiki, ilm-ma‘rifat sohiblariga ko‘rsatilgan yuksak e‘tibor, xayrixohlik davlat va jamiyat taraqqiyotidagi barqarorlikni ta’minalashda muhim rol o‘ynagan.

XIV-XV asr oxirlarida Mavarounnahr ko‘p mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, ba‘zan siyosiy va harbiy ahamiyatga ega bo‘lgan karvon yo’llari bilan bog‘lagan. Bu yo’llar davlatlarning o‘zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga imkon yaratgan.

Bu davrda ko‘plab diniy inshootlar, saroylar, qarorgohlar bунyod etildi. Amir Temurning Hindistonga yurishidan so‘ng (1399-yil) Samarqandda jome masjidi qurilgan. Uning ro‘parasida Bibixonim madrasasi va maqbara qad rostladi. Turkiston shahrida Ahmad Yassaviy maqbarasini, Buxoroda Chashmai Ayub (1380-yil) yodgorligini, Shahrisabzda ziyorat va dafn marosimlari uchun “Hazira”, “Dor us-Siyodat” xilxonasini qurdirgan. Shuningdek, shahar tashqarisida Amir Temur Bog‘i Chinor, Bog‘i Shamol, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i-behisht, Bog‘i Nav, Bog‘i Maydon kabi o‘nlab ajoyib bog‘lar barpo etdi. Temuriylar davrida qurilgan saroylar ikki xil bo‘lgan. Birinchisi – ma‘muriy-siyosiy maqsadda bo‘lib, qal‘a yoki shahar ichida qurilgan. Ikkinchisi – shahar tashqarisidagi bog‘larda, qarorgohlarda qabul marosimlari, majlislar o‘tkaziladigan va hordiq chiqaradigan joy sifatida qurilgan.

Xulosa qilib aytganda, Sohibqironning insoniyat tarixidagi buyuk xizmatlari abadiyatga daxlordir. Darhaqiqat, Amir Temurning beba ho boy va madaniy merosi, davlat boshqaruvidagi ulkan tajribasi umumbashariyat taraqqiyotiga qo‘shilgan beba ho hissa bo‘lib, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishimizda mustahkam omil bo‘lib xizmat qilishi shubhasizdir.

Hakimali AZIMOV,
Toshkent davlat yuridik
universiteti professori

MA'MURIY sudlar – O'zbekiston Respublikasi sud tizimida eng "yosh" ixtisoslik turi hisoblanadi. Prezidentning 2017-yil 21-fevralda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyatni samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni sud hokimiyati faoliyatida tub o'zgarishlar amalga oshirilishiga zamin yaratgan normativ-huquqiy hujjatlardan biridir.

MA'MURIY HUJJATGA BO'LGAN ISHONCH QONUN BILAN QO'RIQLANADI



Ushbu hujjat asosida ilk bor sudyalar mustaqilligini ta'minlash masalasida katta vazifalar yuklatilgan, sudyalar korpusini shakkantirishni zimmasiga olgan Sudyalar oliy kengashiga asos solindi. Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi birlashtirilib, sud ish yurituvu sohasidagi sud hokimiyatining yagona oliy organi – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tashkil etildi. Xo'jalik sudlari iqtisodiy sudlarga o'zgartirilib, ilk bor tumanlar kesimida ham faoliyat yuritishi belgilandi, amaldagi sud majlisi kotibi lavozimi tugatilib, sudlarning tuzilmalariga sudya katta yordamchisi, yordamchisi lavozimlari kiritildi. Farmonning yana bir alohida ahamiyatga ega jihatni esa ayni shu hujjat asosida ilk bor ma'muriy sudlar tashkil etilib, sud tizimida sud ixtisosligining soni bittaga ko'paydi.

Sud-huquq islohotlari doirasida sudlar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi hamda bu hujjatlardan ma'muriy sudlar faoliyatini takomillashtirishga doir yangiliklar ham o'rinn oldi.

Jumladan, Prezidentning 2020-yil 24-iyuldagagi "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvar-dagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi va 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi farmonlarida ma'muriy sudlar ham hayotning talab va ehtiyojlari, shuningdek, milliy va ilg'or xorijiy tajribani inobatga olgan holda doimiy ravishda takomillashtirib borildi.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi sifatida joriy yilning 30-yanvar sanasida Prezidentning "Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Qarorda ma'muriy sudlar zimmasiga shikoyatlarni ko'rib chiqishda faol ishtirok etish tamoyili asosida nizoni to'g'ri hal qilish uchun dalillarni mustaqil yig'ish majburiyati yuklangani, sud qarori ijrosini ta'minlamagan mansabdor shaxslarga jarima qo'llash vakolati berilgani ta'kidlab o'tilgan.

Shuningdek, davlat organi hujjatiga ishonib faoliyat yuritgan fuqaro va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini va qonuniy manfaatlari himoyasini qo'shimcha ravishda kuchaytirish zarurati mavjud ekani qayd etilgan. O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonuning 16-moddasida "Ishonchning himoya qilinishi prinsipi" haqidagi norma belgilangan bo'lib, unga asosan vijdanan harakat qiluvchi manfaatdor shaxslarning ma'muriy hujjatga bo'lgan ishonchi qonun bilan qo'riqlanadi.

Qarorga asosan, ma'muriy sud ishlarini ko'rib chiqish jarayoniga oid yana bir muhim norma belgilanmoqda. Endilikda qarori, harakati (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilinayotgan davlat organi mansabdor shaxsi yoki uning vakili sud majlisida majburiy ishtirok etishi ta'minlanadi. Bunda davlat organi qarori yoki uning mansabdor shaxsi harakati (harakatsizlik) ustidan berilgan arizani ma'muriy sudlarda ko'rishda mansabdor shaxs yoki uning vakili zarur tushuntirishlar berish uchun sud muhokamasida ishtirok etishi shart hisoblanadi. Davlat organi mansabdor shaxsi yoki uning vakili ishtirok etishi zarur deb topilgan hollarda ma'muriy ishni ko'rib chiqish keyinga qoldiriladi, uning ishtiroki ishning har tomonlama, to'liq va to'g'ri hal qilinishiga to'sqinlik qilmagan taqdirda, ish davlat organi mansabdor shaxsi yoki uning vakili ishtirokisiz ko'rib chiqilishi mumkin. Mazkur talabning qat'iy bajarilishi uchun shunday norma belgilandiki, agar davlat organi mansabdor shaxsi yoki uning vakili sud muhokamasiga kelmagan va uning kelmagani sud tomonidan uzrli deb topilmagan taqdirda, mansabdor shaxsga nisbatan sud jarimasi qo'llaniladi. Ushbu tartibning joriy etilishi fuqaro yoki tadbirkorlik subyekti tomonidan ma'muriy hujjat ustidan berilgan arizani ushbu hujjatni qabul qilgan mansabdor shaxs yoki uning vakili ishtirokida har tomonlama o'rganish, tushuntirishlarni aloqador shaxslarning shaxsan o'zidan olish orqali sudya tomonidan mavjud holat aniqlanishi mumkin. Bu esa ma'muriy sudlar tomonidan adolatli va asosli yakuniy sud hujjati qabul qilinishiga xizmat qiladi.

Qarorning yana bir nechta tartiblarni belgilovchi normalari mavjudki, ular ma'muriy sudga nizolarni hal etish jarayonida sudga humatsizlik qilinishi va sudning xususiy ajrimi bo'yicha choralar ko'raslikka oid huquqbazarliklar aniqlanganda ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rish vakolati, tadbirkorlik subyektlarining soliq qarzdorligi masalalarini ma'muriy sud tomonidan ko'rib chiqish bilan bog'liq yangi tartiblarni ham belgilab, amaliyotdagi mavjud ochiq savollarga javob beradi.

Xulosa o'rnda aytish mumkinki, ushbu qaror asosida mamlakatimiz sud tizimida davlat organlarining fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining xatti-harakatlari (harakatsizligi) ustidan berilgan, ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan shikoyatlar va arizalar bo'yicha ma'muriy nizolarni ko'rib, hal etayotgan ma'muriy sudlar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Sardor SUVANOV,
Sirdaryo viloyat ma'muriy sudi sudyasi

HUQUQIY XABARNOMA

INKLYUZIV TA'LIM

QONUNCHILIKKA ko'ra, inklyuziv ta'lism alohida ta'lism ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lism oluvchilar uchun ta'lism tashkilotlarida ta'lism olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lism tashkilotlarida inklyuziv ta'lism tashkil etiladi.

PENSIYA VA IJTIMOIY HIMOYA

Pensionerga hisoblab chiqarib qo'yilgan, lekin uning tomonidan o'z vaqtida talab qilib olinmagan pensiya puli pensiyani olish maqsadida murojaat etilganidan oldingi 24 oydan oshmagan davr uchun to'lanishi ko'zda tutilgan.

Biroq, pensiyani tayinlovchi yoki tolovchi organning aybi bilan o'z vaqtida olinmay qolgan pensiya puli o'tgan davr uchun muddati cheklanmagan holda to'lanadi.

SUN'iy INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI JORIY ETILADI

"Davlat bojxona xizmati organlarning faoliyatini tashkil etish va bojxona ma'muriatchiliginini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident (2025-yil 25-mart) qaroriga muvofiq, 2025-yilda bojxona sohasini rivojlantirishning asosiy maqsadlari etib quydagilar belgilandi:

- sohaga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish;
- bojxona organlari axborot tizimlarini takomillashtirish va samaradorligini oshirish;
- bojxona organlari tashkiliy tuzilmalarini optimallashtirish.
- Bojxona qo'mitasi tizimida Bojxona rasmiylashtiruvni markazi tashkil etiladi. Bunda hududiy boshqarmalarning masofaviy elektron deklaratsiyalash bojxona postlari bosqichma-bosqich tugatiladi.

Bojxona qo'mitasi tarkibida bojxona sohasiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishga ixtisoslashgan tuzilma tashkil etiladi. Sun'iy intellekt texnologiyalarini sohasida ilg'or xorijiy davlatlar tajribalarini o'rganish, bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini qamrab olgan sun'iy intellekt texnologiyalarini tadqiq qilish, ularning samarali ishlashini ta'minlash hamda doimiy tarzda sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish choralarini ko'rish tuzilmaning asosiy vazifalari etib belgilandi.

@huquqiyaxborot

4 ADLIYA ODAMLAR ORASIDA

USTAMA VA ISH HAQI BIRGALIKDA TO'LANADI

HOZIRDA pedagog xodimlarga turli ustamalar to'lanmoqda. Ko'pchilik o'qituvchilar bu ustama mehnat ta'tili davrida yoki vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik vaqtida shuningdek, homiladorlik va tug'ish ta'tilida yoxud boshqa ishlanmaydigan vaqtarda saqlanib qolinadimi, degan mazmundagi savollar bilan murojaat qiladi.

Ustama xodimning ish haqi tarkibiga kiradi. Mehnat kodeksining 248-moddasiga asosan ish haqi asosiy (bazaviy) va qo'shimcha (o'zgaruvchan) qismidan iborat bo'ladi.

Ish haqining asosiy qismiga ish beruvchida amalda bo'lgan mehnatga haq to'lash tizimi asosida xodimga belgilangan mehnat normalariga (tarif stavkalariga, lavozim maoshlariga, keli-shuvga ko'ra belgilangan aniq summalar) ko'ra haqiqatda ishlab berilgan vaqt yoki haqiqatda bajarilgan ish uchun to'lanadigan pul kiradi.



Ish haqining qo'shimcha (o'zgaruvchan) qismi qo'shimcha to'lovlar, ustamalar, shuningdek, mu-kofotlar va kompensatsiya yoki rag'batlantirish xususiyatiga ega boshqa to'lovlardan iborat bo'ladi.

Maktab o'qituvchilarining ish haqlari ham shunday shaklda hisoblanadi. "Xalq ta'lumi xodimlari mehnatiga haq to'lash to'g'risida"gi Nizomning

3-bandiga ko'ra, xalq ta'lumi muassasalarining pedagog xodimlari va rahbar xodimlarining har bir lavozim va malaka toifasi uchun belgilangan bazaviy tarif stavkalari, xodimlarga qonunchilikda belgilangan ustamalar va qo'shimcha to'lovlar asosida shakllantiriladi.

Shunga ko'ra, xodimning ish haqi bazaviy tarif stavkasi va ustamalardan tashkil topadi. Shuning uchun xodimga ustama va ish haqi birgalikda to'lanadi.

Xodimlarga mehnat ta'tili, homiladorlik va tug'ish ta'tili, vaqtincha mehnatga qibiliyatsizlik davri uchun to'lanadigan to'lovlar xodimlarning o'rtacha oylik ish haqi yoki ish haqlaridan kelib chiqib to'lanadi. Shu sababli bu davrda xodimlarga ustama to'lanmaydi. Chunki ularga to'langan ta'til pullari yoki nafaqalar tarkibida to'lanadigan ustamalar ham mavjud bo'ladi.

Nigora BORATALIYEVA,
Pop tuman adliya bo'limi yuridik xizmat
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

RAG'BAT PULI TENG TAQSIMLANMAGAN

TO'RTKO'L tuman maktabgacha va maktab ta'lumi bo'limida ishlovchi S.A. 2023-yil 4-maydan buyon ishlagan davri uchun ish beruvchi tomonidan asossiz tarzda rag'batlantirish choralar ko'rilmayotganidan norozi bo'lib, tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan.



O'rganishda ish beruvchining 2024-yil davomidagi rag'batlantirish buyrug'ida barba-cha xodimlarni rag'batlantirish ko'rsatilgan va jamg'arma mablag'lari hisobidan ko'pchilik xodimlar rag'batlantirilgan bo'lishiga qaramasdan, S.A. hech qanday sababsiz rag'batlantirilmagani aniqlandi.

Vaholanki, Mehnat kodeksining 299-moddasida rag'batlantirish turlari, ularni qo'llash tartibi jamoa kelishuvlarida, jamoa shartnomasida, ichki mehnat tartib-qoidalari hamda mehnat to'g'risidagi boshqa huquqiy hujjatlarda va mehnat shartnomasida belgilanishi ko'rsatilgan.

Shuningdek, maktabgacha va maktab ta'lumi bo'limining 2023-2025-yillar uchun 2023-yil 22-maydagi Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi To'rtko'l tuman kengashi tomonidan tasdiqlangan jamoa shartnomasining 6-bob, 65-bandida hamda Mehnat kodeksining 104-moddasiga asosan mehnatga haq to'lash shartlari xodimning mehnat shartnomasida belgilangan bo'lishiga qaramasdan, ish beruvchi tomonidan ajratilgan mablag' hisobidan rag'batlantirish chorasi ko'rilmagan.

Tuman adliya bo'limining aralashuvi bilan murojaat muallifiga rag'bat puli to'lanishi ta'minlandi.

Davranbek ALLABERGENOV,
To'rtko'l tuman adliya bo'limi
yuridik xizmat ko'rsatish markazi
bosh yuriskonsulti

VAZILAR Mahkamasining 2023-yil 20-noyabrdagi "Davlat xizmatlarini ko'rsatishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, Jismoniy va yuridik shaxslarga ma'lumotnomalar berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishga oid yagona ma'muriy reglamentning 4-ilovasida O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqayotgan, harbiy xizmatga chaqirilish yoshidagi jismoniy shaxslarni harbiy xizmatdan ozod etish to'g'risida ma'lumotnomalar berish nazarda tutilgan.

TO'LOV TALAB ETILMAYDI



Harbiy xizmatdan ozod etish to'g'risidagi ma'lumotnomani beruvchi asosiy organ - mudofaa ishlari bo'limlari hisoblanib, ular fuqarolarning harbiy xizmatga chaqirilishiga yoki undan ozod etilishiga oid barcha masalalarni tartibga soladi.

Ushbu xizmatdan foydalanish uchun arizachi fuqarolarning Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ro'yxatdan o'tib, so'rovnomaga to'ldiradi hamda Mudofaa vazirligiga yuboradi. Mudofaa ishlari bo'limlari ariza topshirilgan kundan boshlab 3 ish kuni ichida ma'lumotnomani rasmiyashirib, YIDXP orqali arizachiga yuboradi.

Harbiy xizmatdan ozod etish to'g'risidagi ma'lumotnomasi uchun to'lov talab etilmaydi. Ushbu xizmatdan foydalanish uchun arizachidan shaxsga oid quyidagi ma'lumotlar, xususan, familyasi, ismi va otasining ismi (agar o'zgaran bo'lsa, bu haqda ma'lumotlar), pasport yoki ID-karta ma'lumotlari, yashash manzili, elektron manzil (agar mayjud bo'lsa), shuningdek, telefon raqami hamda taqdim etiladigan ma'lumotnomasi uchun tilni (o'zbek yoki rus) taqdim etishi talab etiladi.

Akbar JO'RAYEV,
Qibray tuman adliya bo'limi
davlat xizmatlari markazi
bosh mutaxassisasi



"EXAMPLE RISE" mas'uliyati cheklangan jamiyatni hamda Mirzaobod tuman maktabgacha va maktab ta'lumi bo'limi o'rtaida shartnoma imzolangan, ammo bajarilgan ishlar uchun o'z vaqtida haq to'lanmagani oqibatida taraflar o'rtaida qarzdorlik vujudga kelgan. MCHJ rahbarining qarzdorlikni undirish yuzasidan Mirzaobod tuman adliya bo'limiga qilgan murojaati o'rganildi.

Aniqlanishicha, da'vogar tomonidan javobgarga jami 140 million 197 ming 451 so'mlik mahsulot yetkazib berilgan, javobgar esa shartnomaviy majburiyatlarni bajarmasdan, ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq to'lamagan. Qarzdorlikning yuzaga kelishiga oziq-ovqat mahsulotlari yetkazishni autsorsing usulida tashkil etish bo'yicha shartnomalar yuzasidan tender o'tkazilmagani ham sabab bo'lgan.

Demak, shartnomalar "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonun talablariga zid ravishda tuzilgan, ya'ni taraflar o'rtaida elektron do'kon, boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion, eng yaxshi takliflarni tanlash, tender, to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari turlariga amal qilgan holda mahsulot oldi-sotdisi amalga oshirilmagan.

Bunday holatda Fuqarolik kodeksining 116-moddasiga ko'ra, taraflar o'rtaadi shartnomalar o'z-o'zidan haqiqiy emas deb hisoblanaadi. Bitim haqiqiy bo'lmaganida, taraflarning har biri boshqasiga olgan hamma narsani qaytarib berishi, olingan narsani aslicha qaytarib berish imkonii bo'lmaganida esa, agar bitim haqiqiy emasligining boshqa oqibatlari qonunda nazarda tutilgan bo'imsa, uning qiymatini pul bilan to'lashi shart.

Yuqoridagilarga asosan tadbirkor manfaatida Guliston tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritildi. Sudning hal qiluv qarori bilan javobgar tashkilot hisobidan MCHJ foydasiga tegishli pul mablag'i undirilishi belgilandi.

Hokimbek ERKABOYEV,
Mirzaobod tuman adliya bo'limi boshlig'i



KIMLARGA DAROMAD SOLIG'INI TO'LASHDA IMTIYOZLAR TAQDIM ETILADI?



MUROJAATDAGI MUAMMO SUD ORQALI HAL BO'LDI

□ FUQARO S. Kamolova shaxsini tasdiqlovchi hujjati va farzandining tug'ilganligi haqida tibbiy ma'lumotnomasi yo'qligi uchun 2016-yil 11-avgust kuni tug'ilgan farzandiga guvohnoma ololmagan. Ushbu masalada amaliy yordam so'rab, Amudaryo tuman adliya bo'limiga qilgan murojaati o'rganildi.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-oktabrda qarori 3-ilovasi 19-bandida "16 yoshdan oshgan, tibbiy muassasadan tashqarida va tibbiy yordam-siz tug'ilgan bolaga nisbatan tibbiyot muassasasi tomonidan tug'ilganlik haqidagi ma'lumotnomalar rasmiylashtirilmagan shaxslarning tug'ilganligini qayd etish sudning hal qiluv qarori asosida amalgalashiriladi" deb ko'rsatilgan.

Adliya bo'limi tomonidan fuqarolik ishlari bo'yicha Amudaryo tuman sudiga da'vo arizasi kiritilib, Urganch tumanida tug'ilgan Kamolov Alibek



Azamat o'g'liga sud qarori bilan 2025-yil 14-fevralda Amudaryo tuman FHDY bo'limi tomonidan tug'ilganlik haqida guvohnoma rasmiylashtirib berildi.

Mohira ESHMURADOVA,
Amudaryo tuman adliya bo'limi
FHDY bo'limi mudiri

QO'SHIMCHA HAQ TO'LAB BERILDI

□ TO'RTKO'L tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 32-sonli umumiyo'rta ta'lim maktabining o'qituvchisi D.A. qishki ta'til davrida qo'shimcha ish haqi to'lab berilmaganidan norozi bo'lib, tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan.



Aniqlanishicha, D.A.ga uzaytirilgan qishki ta'til davrida to'lanishi lozim bo'lgan 491 ming 96 so'm miqdoridagi ish haqi mifik tab direktori ning o'quv tarbiyaviy ishlari bo'yicha o'rinosari tomonidan tabel va buyruq tegishli tartibda buxgalteriyaga taqdim qilinmagani sababli, o'z vaqtida to'lanmagan.

Vaholanki, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 6-yanvardagi "Ta'lim tashkilotlarda qishki ta'tilni uzaytirish to'grisida"gi 1-sonli buyrug'ining 2-bandи 4-xatboshisida "beriladigan qo'shimcha ta'til kunlari davomida ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan rahbar xodimlar, tarbiyachilar, pedagoglar va boshqa xodimlar, jumladan, mehnatiga soatbay haq to'lanadigan xodimlarga amaldagi ish haqi to'lovlari saqlangan holda to'lab borilishi inobatga olinsin", deb ko'rsatilgan.

Tuman adliya bo'limining yordami bilan o'qituvchiga qo'shimcha ish haqi to'lanishi ta'minlandi.

Bekpo'lat AVAZMETOV,
To'rtko'l tuman adliya bo'limi
yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i

XIZMAT KO'RSATILGAN, PULI ESA...

□ MO'YNOQ tuman adliya bo'limiga "Diyor market Kungrad" MCHJ rahbari 2024-yil 29-oktabrda Mo'ynoq davlat o'rmon xo'jaligini bilan autsorsing shartlari asosida xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzgani, 2024-yil noyabr-dekabr oyalarida kelishilgan shartlar asosida xizmat ko'rsatgan bo'lishiga qaramasdan, buyurtmachi shu kunga qadar shartnoma shartlarini bajarmasdan, kelishilgan mablag'ni to'lab bermaganidan norozi bo'lib murojaat qilgan.



Murojaat adliya bo'limi tomonidan o'rganilib, Qo'ng'irot tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritildi. Sud qarori bilan "Diyor market Kungrad" MCHJ foydasiga 465 million 642 ming 240 so'm qarzdorlikni undirish belgilandi.

Ruslan ANNARAZOV,
Mo'ynoq tuman adliya bo'limi boshlig'i

ELEKTRON RAQAMLI IMZO KALITI QANDAY OLINADI?



□ ELEKTRON raqamli imzo kaliti Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-maydag'i "Davlat xizmatlari markazlari yoki onlayn tarzda (masofadan turib) rasmiy axborot resurslari orqali elektron raqamli imzo kalitini ro'yxatga olish va elektron raqamli imzo kalitining sertifikatini berish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash haqida"gi qarori bilan tartibga solinishi nazarda tutilgan.

Qarorning 1-ilovasi 2-bandiga muvofiq davlat xizmatlari markazlari yoki onlayn tarzda (masofadan turib) rasmiy axborot resurslari orqali "Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyyati organlari hamda tijorat banklari tomonidan ko'rsatiladigan barcha turdag'i xizmatlardan erkin foydalanishni ta'minlaydigan ERI kalitlarini ro'yxatga olish va ERI kalitlar sertifikatlarini berish" davlat xizmatlari sifatida ko'rsatiladi.

Elektron raqamli imzo kalitlarini ro'yxatdan o'tkazish va sertifikatlarni olish uchun jismoniy va yuridik shaxslar davlat xizmatlari markazlariga bevosita yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoki rasmiy axborot resursi orqali elektron tarzda murojaat qilishi mumkin.

Murojaat etuvchi elektron raqamli imzo kalitining sertifikatini olish uchun yig'im to'laydi. Yagona portal orqali murojaat etilganda, yig'im summasining 90 foizi undiriladi. Kasb-hunar kollejlari va akademik litsseylarning o'quvchilariga, umumiyo'rta ta'lim tashkilotlarining bitiruvchi sinf o'quvchilariga, "Temir daftari", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"da ro'yxatda turgan fuqarolarga sertifikatlar bepul beriladi.

Davlat xizmatlari markazi sertifikatni berish to'grisidagi so'rovnomani qabul qilganidan so'ng yigirma daqqaq vaqt ichida undagi ma'lumotlarni davlat xizmatlari markazi xodimining ERI bilan tasdiqlangan holda vakolatli organning axborot tizimiga idoralararo elektron o'zaro bog'lanish yo'li bilan yuboradi.

Sarvar XOLMUXAMATOV,
Qibray tuman adliya bo'limi
davlat xizmatlari markazi
direktori

6 SUDYA MINBARI

Konstitutsiyaning 58-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlari boshqarishda, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi" deyiladi.

Shuningdek, 42-moddasida homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanishi mustahkamlab qo'yilgani ayol huquqlarining yuksak himoyasidir.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, yurtimizda xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, oliy ta'limga bilan qamrab olish, kasbga yo'naltirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. 2022-2023-o'quv yildidan boshlab oliy ta'limga muassasalari, texnikum va kollejlarda o'qiyotgan xotin-qizlarning ta'limga kontraktlarini to'lash uchun foizsiz ta'limga kreditlari joriy qilindi. Magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning shartnoma to'lovlarini davlat tomonidan qoplash tartibi belgilandi. Ehtiyojmand

XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI MUSTAHKAMLANMOQDA

HOZIRGI davrda xotin-qizlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish yanada dolzurb ahamiyat kasb etmoqda. Xo'sh, bugun yurtimizda ular muammolardan qay darajada himoyalangan? Qanday haq-huquqlari bor?



oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlarning ta'limga shartnomalarini mahalliy budgetning qo'shimcha manbalari hisobidan qaytarish shartisiz qoplash tartibi yo'nga qo'yildi.

Ta'kidlash joizki, gender tenglikni ta'minlashga va ayollarning ijtimoiy

turmush sharotlarini yaxshilashga qaratilgan islohotlar rivojlanib bormoqda. Bu borada davlat rahbari hamda hukumat tomonidan qabul qilingan qator normativ-huquqiy hujjalarni e'tirof etish mumkin. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunlari, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-yanvardagi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashitish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 12-apreldagi "Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi bo'lgan, kam

ta'minlangan, farzandlarini to'liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorlarini e'tirof etish mumkin.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, so'nggi yillar mobaynida xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro va milliy me'yoriy normativ hujjalarni yurtimizda ayol-qizlarga siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini, jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonlarida, tadbirkorlik sohalarida teng ishtirok etishlarini kafolatlashga xizmat qilishi shubhasiz.

**Ruslan JUMABAYEV,
Nukus tumanlararo ma'muriy
sudi raisi**

ISLOHOTLAR YO'LIDAGI TO'SIQ

MAMLAKATIMIZDA korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan 10 ga yaqin qonun, Prezidentning qator farmon va qarorlari qabul qilindi.

Xususan, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy maqomi, majburiyatlari, cheklar hamda korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar belgilab berildi. Moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi organlar faoliyati tartibga solinib, budget qonunchiliginiz buzish xavfini tahlil qilish maqsadida "Elektron nazoratchi-taftishchi" dasturiy majmuasi yaratildi. Davlat xaridlari jarayonlari doimiy monitoring qilinib, natijalarini e'lon qilib borish amaliyoti yo'nga qo'yildi. Davlat organlari va tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimi joriy qilindi. Baholash natijalariga ko'ra, 3 ta tashkilot faoliyat samaradorligi "yaxshi", 10 ta tashkilot "qoniqarli" va 11 ta tashkilot "qoniqarsiz" toifalarga ajratildi.

Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirishda Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi va uning hududiy kengashlari samarali faoliyat olib bormoqda. Milliy kengash va uning hududiy kengashlari korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning o'zaro hamkorligini ta'minlaydi.

Davlatimiz rahbari shu yilning 5-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi yig'ilishida ishtirok etib, yurtimizda korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo'yicha qilingan ishlarga baho berdi hamda kelgusidagi vazifalar belgilab berildi.

Korrupsiya jamiyat taraqqiyotining muhim omillari hisoblangan tinchlik, osoyishtalik,adolat, qonun ustuvorligi kabi ijtimoiy huquqiy qadriyatlarni yo'q qiladi, milliy xavfsizlikka tahdid soladi, mamlakat rivojiga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun Prezidentimiz nazarda tutgan "halollik vaksinasi" bilan emlash - bu muayyan sohada korrupsiyaga qarshi qaratilgan tashkiliy va huquqiy asoslarni yaratish, mavjudlarini zamon talablari asosida takomillashtirish va unga qat'iy rioxaya qilish mexanizmlarini joriy qilish orqali unga qarshi kompleks tarzda kurashishni anglatadi.

Barcha sohalar qatori sud sohasida ham korrupsiya illatlarini yo'q qilish va uning rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida korrupsiyaviy holatlarni o'z vaqtida aniqlash, oldini olish, ularga chek qo'yish, uning oqibatlarini, shuningdek, unga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

**Jasur OTABOYEV,
fuqarolik ishlari bo'yicha Bekobod tumanlararo sudi raisi**

PREZIDENTIMIZNING 2024-yil 3-iyundagi "Bozor islohotlarini yanada jadallashtirish va O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish bo'yicha navbatdagagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga asosan 2025-yil 1-yanvardan boshlab budget buyurtmachilari tomonidan, shu jumladan, budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan tuziladigan shartnomalar bo'yicha to'lovlar tegishli tartibda g'aznachilik xizmati bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilgandan (hisobga olingandan) so'ng amalga oshirilishi belgilanmoqda.

TARTIB O'ZGARDI

Qonunchilikdagi bu yangilik davlat xaridlari amalga oshirishda sog'lom raqobat muhitini ta'minlash maqsadida amaliyotga joriy etildi.

Farmonda nazarda tutilayotgan qoidalar davlat xaridlari bilan bog'liq bo'lgan, shu jumladan, taraflardan biri budget buyurtmachilari hisoblanadigan va mahsulot yetkazib berish, pudrat (qurilish pudrati), xizmat ko'rsatish shartnomalaridan kelib chiquvchi nizolarning sudsida ko'rib chiqilishida ham qo'llaniladi.

Ma'lumki, iqtisodiy sudsalar tomonidan muqaddam bunday nizolarni ko'rishda ularning yechimiga Oliy xo'jalik sudi Plenumining "Xo'jalik shartnomalarini tuzish, o'zgartirish va bekor qilishni tartibga soluvchi fuqarolik qonun hujjalarni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi va "Iqtisodiy sudsalar tomonidan qurilish pudrati shartnomasidan kelib chiqadigan nizolarni hal etishda qonun hujjalarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorlarida berilgan tushuntirishlardan kelib chiqib yondashilar edi.

Chunki, ushbu Plenum qarorlarida mahsulot yetkazib berish, xizmatlar ko'rsatish va qurilish pudrati shartnomalari belgilangan tartibda g'aznachilikdan ro'yxatdan o'tkazilmagan bo'lsa-da va shunga ko'ra shartnomalar tuzilmagan deb hisoblansa-da, agar bunday ishlar bajarilgani (xizmatlar ko'rsatilgani, mahsulot yetkazib berilgani) holati taqdim etilgan dalillar bilan isbotlansa, bajarilgan ishlar (ko'rsatilgan

xizmatlar, yetkazib berilgan mahsulot) qiymatini undirish to'g'risidagi talabni rad etishga asos bo'lmasligi nazarda tutilgan.

Biroq, yuqorida farmon bilan davlat xaridlari bilan bog'liq bo'lgan va (yoki) budgetdan moliyalashtirishni nazarda tutuvchi bitimlarni avvalo ularning moliyalashtirish manbalari mavjud bo'lgan taqdirdagina tuzish lozimligi qat'iy belgilab berilmuoqda.

Budget kodeksi 122-moddasining uchinchi qismiga ko'ra, budget tashkilotlari va budget mablag'lar oluvchilarning budgetdan ajratiladigan mablag'lar bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalarini, shuningdek, ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shinchalar ular g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin kuchga kirishi belgilangan.

Endilikda davlat buyurtmachilari bo'lgan davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari zimmasisiga davlat xaridlarni amalga oshirishda sohaga oid qonunchilik hujjalari qat'iy rioxaya etish, shuningdek, davlat xaridlarning ochiqligi va shaffofigini ta'minlash uchun shaxsiy javobgarlik yuklanadi.

**Sabit JAKEYEV,
Navoiy viloyat sudi
sudyasi,
Hamidullo SA'DULLAYEV,
Karmana tumanlararo iqtisodiy sudi
sudyasi**

OILAVIY ZO'RAVONLIK SHAXSIY MUAMMO EMAS!

OILAVIY zo'ravonlik zamonaviy jamiyat duch kelayotgan eng dolzarb ijtimoiy muammolardan biri bo'lib, yurtimiz ham bundan mustasno emas. So'nggi yillarda bu muammo haqidagi xabardorlik ortib bormoqda. Biroq u hamon yashirin ko'rinishda bo'ladi va ko'pincha e'tibordan chetda qoladi.

Qonunchilikka ko'ra, tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan shaxs tegishli organlarga yoki sudga ariza bilan murojaat qilish, bepul huquqiy maslahat, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy va boshqa turdag'i yordam olish huquqiga ega. Tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan shaxs o'ziga yetkazilgan moddiy zararni qoplash va ma'nnaviy ziyyoni kompensatsiya qilish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat qilganda davlat bojini to'lashdan ozod etiladi.

Bundan tashqari, Jinoyat kodeksi-ga oilaviy (maishiy) zo'ravonlikni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi 126'-modda kiritildi. Av-



valo, oilaviy zo'ravonlik jismoniy, ruhiy, jinsiy va iqtisodiy zo'ravonlikni o'z ichiga olgan keng qamrovli harakatlarni qamrab oladi.

Ayollarga nisbatan zo'ravonlik hayotning barcha sohalarida, ayniqsa, oilada kuzatiladi. Oila a'zolari tomonidan ayollarga nisbatan sodir etilgan bu holat bolalar va keksalarga ham ta'sir ko'rsatadi. Oilaviy zo'ravonlikdan jabrlanuvchilar ko'pincha ijtimoiy izolyatsiya, kamshitish va yetarli qo'llab-quvvatlashning yo'qligiga duch kelishadi. Oila va ayolning jamiyatdagi o'rni

haqidagi an'anaviy qarashlar bu muammoni yanada chuqurlashtirishi va yordam so'rashga to'siq yaratishi mumkin.

Oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashishning eng muhim jihatlaridan biri ta'lmdir. Zo'ravonlik belgilari va uning oqibatlari to'g'risida xabardorlikni oshirishga qaratilgan dasturlarni joriy etish g'oyatda muhim. Maktab va oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlari gender tengligi va inson huquqlari mavzularini o'z ichiga olishi kerak. Ta'lim tashabbuslarining yordamida

oilaviy zo'ravonlikni shaxsiy muammo deb qarashni o'zgartirish va o'zaro hurmat hamda qo'llab-quvvatlash g'oyalarini ilgari surish mumkin.

Oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashish nafaqat davlat organlari yoki ixtisoslashgan tashkilotlarning, balki butun jamiyatning vazifasidir. Har birimiz bu muammoni hal etishga o'z hissamizni qo'shishimiz mumkin. Buning uchun xabardorlikni oshirishdan tortib, jabrlanuvchilar faol qo'llab-quvvatlashgacha bo'lgan jarayonlarni birgalikda amalga oshirishimiz zarur. Oilaviy zo'ravonlikka nisbatan nol darajadagi murosasizlik madaniyatini shakllantirish shaxsiy ong va ijtimoiy me'yolar darajasida birgalidagi sa'y-harakatlar va o'zgarishlarni talab etadi. Faqat kuchlarimizni birlashtirish orqaligina, jamiyatimizning barcha a'zolari uchun xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhitni yarata olamiz.

**Sabrina SHAMURATOVA,
Toshkent davlat yuridik
universiteti talabasi**

QONUNCHILIKDA yolg'on ma'lumot tarqatganlik uchun javobgarlik belgilangan. Xususan, "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksning 2022-moddasida "Shaxsning qadr-qimmati kamsitilishiga yoki uning obro'sizlantrilishiga olib keladigan yolg'on axborotni tarqatish, ularni ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog'ida tarqatish, bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Jamoat tartibiga yoki xavfsizligiga tahdid soluvchi yolg'on axborotni tarqatish, shu jumladan, ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog'ida tarqatish, - bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi" deya belgilangan. Bundan tashqari, yolg'on axborot tarqatish huquqbazar tomonidan ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin 1 yil ichida qayta sodir etilsa, Jinoyat kodeksining bir qator moddalarida belgilab qo'yilgan jinoiy jazo chorasi qo'llanilishi mumkin.

Yolg'on ma'lumotlarning eng ko'pi ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladi. Internetda chegara yo'q va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalgan yolg'on xabarlarni qonun bilan cheklash qiyin. Bunday holatlarda internet foydalanuvchilarining o'zi qayerdan va qanday manbadan ma'lumot qabul qilayotganiga e'tibor berishi, ma'lumot haqiqatga yaqinmi, yoki yo'qmi fikr yuritishi lozim bo'ladi.

Masalan, 2020-yil Covid-19 pandemiyasi davrida ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan yolg'on ma'lumotlar aholini vahimaga soldi. Bu xabarlar orasida turli davolash usullari va dori-darmonalr haqidagi noto'g'ri ma'lumotlar ham bor edi. Ko'plab odamlar bu yolg'on ma'lumotlarga ishonib, sog'lig'iga zarar yetkazuvchi usullarni qo'llab, xato qildi.

Yoki Telegram messenjerida "Shu xabarni 10 ta do'stingizga ulashing va 10 daqiqadan keyin xushxabar eshitasiz, agar tarqatmasangiz 10 daqiqadan keyin siz bilan yomonlik sodir bo'la-di" talqinidagi yolg'on xabarlar ham ko'pchiligidan tanish. Bu, albatta, o'z manfaatini ko'zlagan holda odamni manipulyatsiya qilish. Bunday manipulyatsiya holatlariga tushib qolishdan va

"XABARNI O'NTA DO'STINGIZGA ULASHING..."



yolg'on ma'lumotlarga ishonib qolishdan saqlanish muhimdir.

Foydalanuvchi biror-bir ma'lumotni qidirayotganda, avvalo, ma'lumotning manbasi, bu bilan shug'ullanuvchi mas'ul organ kimligini ajratib olishi lozim. U organning rasmiy internet manbalari bor-yo'qligiga e'tibor qaratishi zarur.

Yolg'on xabarlar bilan bog'liq holatlar ko'p va bu kundan-kunga ko'payishi tabiiy. Shuning uchun

ularni aniqlash va ularga qarshi kurashish muhimdir. Shunday ekan, axborot savodxonligingizni oshirish, qabul qilayotgan axborotlaringizni fact-checking qilish, tanqidiy fikrlash orqali yolg'on axborotlarga qarshi samarali kurashish mumkinligini unutmang!

**Nodiraxon OBIDOVA,
Toshkent davlat yuridik
universiteti talabasi**

UY BEKASI HAM ISH STAJIGA EGA BO'LISHI MUMKIN

AHOLINI tadbirdorlik faoliyatiga yana keng jalb qilish va qonuniy mehnat faoliyatini amalga oshirish maqsadida bugungi kunda band bo'limgan fuqarolarga o'zini o'zi band qilgan holda ijtimoiy soliq to'lash orqali ish stajiga ega bo'lishi imkoniyati yaratilgan.

Prezidentning 2020-yil 8-iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddallashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarorida o'zini o'zi band qiladigan shaxslar 103 turdag'i faoliyat turlaridan bira bilan shug'ullanib, ijtimoiy soliq to'lagan holda ish stajiga ega bo'lishi mumkinligi belgilangan.

O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatga olish davri mehnat faoliyati bu davrda o'zini o'zi band qilish tartibida amalda bajarilgani yoki bajarilmaganidan qat'i nazar pensiya tayinlash uchun mehnat stajiga qo'shib hisoblanadi, deb ko'rsatilgan.

**Oribjon XUDOYNAZAROV,
Buvayda tuman adliya bo'limi
yuridik xizmat ko'rsatish markazi
bosh yuriskonsulti**

E'RONLAR

Advokat M. Kurbanovning arizasiga asosan, Xorazm viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil 20-martdagi 76-um-sonli buyrug'i bilan advokat Kurbanov Murodbek Rustamovichga boshqarma tomonidan berilgan advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi hamda advokat maqomi tugatildi.

Buxoro viloyat adliya boshqarmasining "Buxoro" advokatlar hay'atining a'zosi, advokat Rajabov Sa'dullo Kazakovichning advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasining amal qilishi va advokatlik maqomi tugatildi.

8 JURNALIST KUZATUVI

BOG'CHA BOLALARI ISTE'MOL QILAYOTGANI GO'SHTMI YOXUD...

HAMKASBIMIZ Ruslan Saburovning Facebookdagi sahifasida Nurotadagi bolalar bog'chalarida bolalarga beriladigan go'sht mahsulotlarining suratini ko'rgan har qanday odam tashvishga tushishi aniq. Bu birinchisi emas, degan achchiq iqror esa undan-da tashvishli. Chunki xuddi shunday nafs domiga ilingan "bog'cha opa"lar haqida avvaldan juda ko'p mish-mishlarga, jinoyatlarga, xiyonatlarga guvoh bo'lганмиз.

Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyati tomonidan o'tkazilgan o'r ganish davomida aniqlangan ushbu suratdagi holat chindan ham achinarli. Bolalarning haqqiga xiyonat qilgani yetmaganidek, ularga sifatsiz, kim biladi balki iste'molga yaroqsiz mahsulotni ravo ko'rayotganlar ham ona-mi, ularning bu qilmishlari bir kun kelib o'z farzandlariga qaytmaydimi?

Suratdagi mahsulotni kechirasizu odamlar itiga ham bermaydi. Yarmi yog', yarmi chandir, qorin go'shtiga o'xshagan allambalo narsa aslida go'sht deyishga ham arzimaydi. Tasavvur qiling, bunday yaroqsiz mahsulotdan pishirilgan ovqatni yegan bolalar qanday sog'lom bo'lishi mumkin?

Bolalarning hayotini xatarga qo'yib, ularning sog'lig'iga xavf tug'dirishdan cho'chimaydigan Navoiydag'i ayrim maktabgacha ta'limga tashkiloti xodimlari bolalarga muddati o'tgan oziq-ovqat mahsulotlarini berish bo'yicha "katta tajriba"ga egaligini ham aytish o'rinni. Bundan bir necha yil avval Navoiy shahridagi bir nechta bolalar bog'chalarining mudirlari iste'molga yaroqsiz, qurt tushgan, achigan oziq-ovqat mahsulotlarini bolalarning ovqatiga qo'shgani



uchun jinoi javobgarlikka tortilgani to'g'risida maqolalar yoritilgani dan ko'pchilikning xabari bor.

Eng achinarlisi, o'shanda "bog'cha opa"lar sud qarori bilan egallab turgan lavozimidan ozod qilingan bo'lسا-da, oradan bir necha oy o'taro'tmas, boshqa bir bolalar bog'chasiiga mudirlik lavozimini egallagani ga nima deysiz! Qorlar erib, izlar yo'-

oldi, deb o'ylayotgan maktabgacha ta'limga tashkiloti mas'ullari qachongacha "Aldagani bola yaxshi..." degan aqida bilan ish yuritarkan?

Respublikamizda bot-bot guruhli zaharlanish holatlari qayd etilayotgani, bundan ko'proq bolalar jabr ko'rayotgani hech kimga sir emas. Zaharlanishlarning asosiy sabablari orasida ovqat tayyorlash va saqlash

qidalariga rioya qilinmasligi, sifat-siz mahsulotlardan foydalanish kabi omillar aniqlanganidan ko'z yumib bo'lmaydi.

O'tgan yili Paxtakor tumanidagi xususiy bog'chada 4 va 5 yoshli ikki qizaloq yuqori tana harorati bilan shifoxonaga yotqizilgani, ular oziq-ovqatdan zaharlangan bo'lishi mumkinligi taxmin qilingani, ushbu hodisa bo'yicha tergov ishlari olib borilgani esingizdam? Yoki Angren shahrida 24 nafar bola bog'chada ovqatdan zaharlanish alomatlari bilan shifoxonaga yotqizilgani, bolalar bog'chasi vaqtincha yopilib, tibbiy tekshiruvlar o'tkazilganidan ham ko'pchilikning xabari bor.

Qachongacha yopig'liq qozonlar yopig'ligicha qoladi? Farzandlari-mizning ertasi uchun befarq bo'lmaylik! Jamoatchilik nazorati degan katta imkoniyat faqat qog'ozlarda qolmasin.

Maktabgacha va mактаб та'limi vazirligi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-yanvarda qabul qilingan "Davlat maktabgacha ta'limga tashkilotlarda sog'lom ovqatlantirish tarbibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining ijro-sini ta'minlashni unutmaydi degan umiddamiz.

Marusa HOSIOVA,
"Inson va qonun" muxbirini

NAZARIYADAN AMALIYOT SARI QADAM

TOSHKENT davlat yuridik universiteti bakalavriat bosqichi kunduzgi ta'limga shaklida tashil olayotgan 4-bosqich talabalarining bitiruv malakaviy amaliyoti tashkil etildi. Unga ko'ra, universitetning 1 ming 358 nafer talabasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa tashkilotlarda bitiruv malakaviy amaliyotini o'tamoqda.

Joriy yilda 4-kurs talabalarining 432 naferi prokuratura, 267 naferi sud, 239 naferi adliya, 139 naferi advokatura, 47 naferi notariat, 19 naferi ichki ishlari, 5 naferi tashqi ishlari tizimida, shuningdek, 189 naferi boshqa tashkilot va idoralarda amaliyot o'tab, nazariy bilimlarini mustahkamlamoqda. Bu esa talabalarga yuqori malakali mutaxassislar rahbarligida amaliyotning barcha jihatlari bilan tanishish imkonini bermoqda.

Bundan tashqari, universitetda faoliyat yuritgan yuridik klinikada talabalar amaliyot o'tash, fuqarolar qabulida ishtirok etish, sud qarorlarini tahlil qilish, ariza va da've arizalari yozish kabi ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Ta'limga dargohida 2024/2025-o'quv yilidan innovatsion yondashuv joriy etilib, "3+2" amaliyot tizimi tatbiq etildi. Ushbu tizimga ko'ra, 3-kurs talabalar haftaning 3 kunida nazariy darslarda qatnashib, qolgan 2 kunini amaliyotga bag'ishlaysi. Bu yondashuv talabalarga nazariy bilimlarini bevosita yuridik amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Yuridik ta'limga bu yangilik dunyoning boshqa ko'plab rivojlangan davlatlarida ham muvaffaqiyatli tatbiq etilgan. Asosan AQSH, Germaniya, Kanada, Buyuk Britaniya va Yangi Zelandiya kabi davlatlarda yuridik ta'limga nazariya va amaliyotni birlashtiruvchi maxsus dasturlar keng joriy etilgan.

Masalan, AQSHda yuridik maktablar talabalariga "clinics" deb ataluvchi yuridik klinikalar orqali tajriba orttirish imkoniyatini yaratadi. Bu klinikalar davlat idoralari, notijorat tashkilotlar va yuridik firmalar bilan hamkorlikda talabalarga turli amaliy ishlarni bajarish imkoniyatini beradi.

Germaniyada esa, yuridik ta'limga amaliyot o'tash majburiy hisoblanadi. Talabalar universitetdan so'ng "Referendariat" deb nomlangan ikki yillik amaliyot dasturida ishtirok etadi. Ushbu

dasturda talabalar davlat idoralarida va advokatlik tashkilotlarida ish yuritishning barcha jarayonlarini o'rganadi.

Kanadaning yuridik ta'limga tizimida esa "articling" deb ataluvchi bir yillik amaliyot dasturi talab etiladi. Bu jarayonda talaba biror yuridik firmada yoki davlat idorasida ishlaydi va o'z nazariy bilimlarini amaliy ishda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xulosa shuki, O'zbekiston Respublikasi yuridik ta'limga tizimida ushbu yondashuvni keng joriy etish yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda, xalqaro tajribani o'zlashtirishda va talabalar orasida o'quv jarayoniga qiziqishni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aziza ISMOLOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
o'quv uslubiy boshqarmasi xodimi

"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi jamoasi markazning "Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma tabod hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasi da chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1-a-uy
Tirji – 1 403
Buyurtma – 912

Topshirish vaqt – 19:00
Topshirildi – 19:00

MANZILIMIZ:
100060, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65
Bahosi kelishilgan narxida

1 2 3 4 5